




TECH SCIENCE

ISSN 3030-3702

**TEXNIKA FANLARINING
DOLZARB MASALALARI**

**TOPICAL ISSUES OF TECHNICAL
SCIENCES**



№ 2 (4) 2026

TECHSCIENCE.UZ

№ 2 (4)-2026

**TEXNIKA FANLARINING DOLZARB
MASALALARI**

**TOPICAL ISSUES
OF TECHNICAL SCIENCES**

TOSHKENT-2026

BOSH MUHARRIR:

KARIMOV ULUG'BEK ORIFOVICH

TAHRIR HAY'ATI:

Usmankulov Alisher Kadirkulovich - Texnika fanlari doktori, professor, Jizzax politexnika universiteti

Fayziyev Xomitxon – texnika fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Rashidov Yusuf Karimovich – texnika fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Adizov Bobirjon Zamirovich– Texnika fanlari doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Umumiy va noorganik kimyo instituti;

Abdunazarov Jamshid Nurmuxamatovich - Texnika fanlari doktori, dotsent, Jizzax politexnika universiteti;

Umarov Shavkat Isomiddinovich – Texnika fanlari doktori, dotsent, Jizzax politexnika universiteti;

Bozorov G'ayrat Rashidovich – Texnika fanlari doktori, Buxoro muhandislik-texnologiya instituti;

Maxmudov Muxtor Jamolovich – Texnika fanlari doktori, Buxoro muhandislik-texnologiya instituti;

Asatov Nurmuxammat Abdunazarovich – Texnika fanlari nomzodi, professor, Jizzax politexnika universiteti;

Mamayev G'ulom Ibroximovich – Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Jizzax politexnika universiteti;

Ochilov Abduraxim Abdurasulovich – Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Buxoro muhandislik-texnologiya instituti.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2025-yil 8-maydagi 370-son qarori bilan texnika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Muassislar: "SCIENCEPROBLEMS TEAM" mas'uliyati cheklangan jamiyati;
Jizzax politexnika insituti.

**TECHSCIENCE.UZ- TEXNIKA
FANLARINING DOLZARB**

MASALALARI elektron jurnali
15.09.2023-yilda 130343-sonli
guvohnoma bilan davlat ro'yxatidan
o'tkazilgan.

TAHRIRIYAT MANZILI:

Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik
Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy.
Elektron manzil:
scienceproblems.uz@gmail.com

Barcha huquqlar himoyalangan.

© Sciencesproblems team, 2026-yil

© Mualliflar jamoasi, 2026-yil

MUNDARIJA

Убайдуллаев Малик, Махмудов Рустам

РАЗРАБОТКА ПРОГРАММНОГО КОМПЛЕКСА МОНИТОРИНГА И МОДЕЛИРОВАНИЯ
АТМОСФЕРНОГО ПЕРЕНОСА ЗАГРЯЗНЯЮЩИХ ВЕЩЕСТВ4-16

Quljanova Shukurjon, Khujayev Otabek

OVQATLANISH MONITORINGI TIZIMLARIDA SUN'IY INTELLEKT VA ASSOSIATIV
QOIDALARNI KO'RIB CHIQISH VA TAHLIL QILISH 17-22

Vasiyev Xayrullo

TO'QIMACHILIK SANOATIDA SIFAT MENEJMENTI TIZIMINING AXBOROT TA'MINOTI ORQALI
SAMARALI BOSHQARISH 23-29

Yuldashev Abduvaxob

ENERGIYA RESURSLARIDAN OQILONA FOYDALANISH UCHUN TIZIMLI
YONDASHUV 30-35

Xolxo'jayev Jasurxo'ja, Xalikulov Oybek

YIRIK O'LCHAMLI METROLOGIYADA KOORDINAT-O'LCHASH MASHINALARI
SHARHI 36-40

Boboyev G'aybulla, Ismoilov Muxriddin, Rahimov Anvarjon

POLIMER MATERIALLARNI MEXANIK VA FIZIK SINOV USULLARINI
TAKOMILLASHTIRISHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI 41-48

TO'QIMACHILIK SANOATIDA SIFAT MENEJMENTI TIZIMINING AXBOROT TA'MINOTI ORQALI SAMARALI BOSHQARISH

Vasiyev Xayrullo Ulugbekovich

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),

Andijon davlat texnika instituti "Metrologiya va yengil sanoat" kafedrası katta o'qituvchisi

Email: vasiyevphd@astiedu.uz

Tel: +99893632-67-17

ORCID: 0000-0001-6329-0082

Annotatsiya. Ushbu maqolada to'qimachilik korxonalarida sifat menejmenti tizimini axborot ta'minoti asosida takomillashtirish masalalari tahlil qilindi. Axborot oqimlarini boshqarish, monitoring va avtomatlashtirish jarayonlari ishlab chiqarish samaradorligini oshirishi hamda mahsulot sifatining barqarorligini ta'minlashi ilmiy jihatdan asoslandi. Natijalar amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga imkon berdi.

Kalit so'zlar: sifat menejmenti tizimi, axborot ta'minoti, to'qimachilik korxonalari, boshqaruv samaradorligi, monitoring tizimi, hujjatlar aylanishini avtomatlashtirish, CALS texnologiyalari, axborot oqimlari, mahsulot sifati, raqobatbardoshlik.

EFFECTIVE MANAGEMENT OF THE QUALITY MANAGEMENT SYSTEM IN THE TEXTILE INDUSTRY BASED ON INFORMATION SUPPORT

Vasiev Khayrullo Ulugbekovich

Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences,

Senior Lecturer of the Department of Metrology and Light Industry,

Andijan State Technical Institute

Annotation. This article analyzes the improvement of the quality management system in textile enterprises based on information support. It is shown that information flow management, monitoring, and automation increase production efficiency and ensure product quality stability. The obtained results enabled the development of practical recommendations.

Keywords: quality management system, information support, textile enterprises, management efficiency, monitoring system, document workflow automation, CALS technologies, information flows, product quality, competitiveness.

DOI: <https://doi.org/10.47390/ts-v4i2y2026N03>

Kirish.

To'qimachilik korxonalarida sifat menejmenti tizimi (SMT) axborot ta'minoti modelini ishlab chiqish jarayonida samaradorlikni ta'minlash hamda ortiqcha xarajatlarni kamaytirish uchun cheklangan miqdordagi xodimlarni jalb etish maqsadga muvofiq hisoblanadi [1;90-92-b]. Mazkur yondashuv doirasida har bir manfaatdor bo'linmadan bir yoki ikki nafar vakilni jalb etish yetarli bo'lib, bu jarayon resurslardan oqilona foydalanish imkonini beradi. Jalb etilgan xodimlar o'zaro muvofiqlashtirilgan holda yagona ishchi guruh tarkibida faoliyat olib boradilar.

Adabiyotlar taxlili va metodologiya.

Ishchi guruh asosida tashkil etilgan bunday hamkorlik modeli zamonaviy menejment tamoyillariga to'liq mos keladi. Xususan, ushbu yondashuv bo'limlarga asoslangan an'anaviy boshqaruv tizimidan farqli ravishda, loyihaviy yondashuvga tayanuvchi tashkiliy tuzilmalarning shakllanishini nazarda tutadi. Bunda turli bo'linmalardan jalb etilgan mutaxassislarning muayyan loyiha doirasida hamkorlikda faoliyat yuritishi qarorlar qabul qilish tezligini oshirishga, boshqaruv jarayonlarining shaffofligi va muvofiqligini ta'minlashga xizmat qiladi.


Ishchi guruhni shakllantirish jarayoni bilan bir qatorda SMT axborot ta'minoti modelini ishlab chiqish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar aniqlashtiriladi [2;18-19 -b]. Ushbu axborotlar keyinchalik SMT axborot ta'minotining "mavjud holat" modelini "takomillashtirilgan holat" modeliga transformatsiya qilish uchun metodik asos bo'lib xizmat qiladi.

Axborotlar shunday tizimlashtirilishi kerakki, ular asosida hujjatlar aylanishining tuzilmasi nafaqat bo'linmalar kesimida, balki alohida xodimlar darajasida ham aniq va izchil tasvirlanishi mumkin bo'lsin. Shu bilan birga, har bir hujjatning paydo bo'lishidan boshlab, kelishish, nazorat qilish, tasdiqlash, arxivlash hamda keyingi foydalanishgacha bo'lgan to'liq harakatlanish sikli aniqlangan bo'lishi lozim. Axborotlarni chuqur tahlil qilish natijasida hujjatlar aylanish jarayonidagi barcha nazorat nuqtalari va vaqtinchalik to'xtash holatlari aniqlanishi talab etiladi [3;205-207-b].

Yuqoridagilardan kelib chiqib, SMT axborot ta'minoti modelini shakllantirish uchun zarur bo'lgan axborotlar ro'yxati quyidagi asosiy talablarga javob berishi kerak:

- to'qimachilik korxonasida SMT axborot ta'minoti bilan bog'liq bo'lgan maksimal miqdordagi jarayonlarni qamrab olishi;
- hujjatlar aylanishining to'liq va uzluksiz siklini kuzatish hamda tahlil qilish imkoniyatini ta'minlashi;
- amalda qo'llanilayotgan me'yoriy hujjatlar ro'yxatini shakllantirishga xizmat qilishi;
- xarid qilinishi lozim bo'lgan me'yoriy hujjatlar ro'yxatini aniqlash va asoslash imkonini berishi;
- qo'llanilayotgan materiallar, xarid qilinadigan detallar hamda ularning yetkazib beruvchilari ro'yxatini shakllantirishini ta'minlash;
- sifatni ta'minlash jarayonlari to'g'risida axborotlarni yig'ish;
- tashkilot iste'molchilari va ular tomonidan xarid qilinayotgan mahsulotlar ro'yxatini shakllantirish.

SMT axborot ta'minoti tizimini yaratish bo'yicha ishchi guruhni shakllantirish mexanizmi 1-rasmda aks ettirilgan.



1-rasm. To'qimachilik korxonalarida SMT axborot ta'minotini takomillashtirish bo'yicha ishchi guruhni shakllantirish mexanizmi

Yuqorida keltirilgan axborotlar tashkilotda sifat menejmenti tizimi (SMT) axborot ta'minotining "mavjud holat" hamda "takomillashtirilgan holat" modellarini ishlab chiqishda, hujjatlar aylanishini avtomatlashtirishga qaratilgan shablonlarni shakllantirishda, mahsulotlarning elektron tavsiflarini ishlab chiqishda, yagona axborotlar bazasi tuzilmasini loyihalashda hamda axborot ta'minoti texnologiyalarini joriy etishda keng qo'llaniladi [4; 101–102-b].

Natijada, mazkur chora-tadbirlarni kompleks ravishda amalga oshirish tashkilotda to'liq qog'ozsiz hujjatlar aylanishiga bosqichma-bosqich o'tishni, sifatni boshqarishning avtomatlashtirilgan tizimini joriy etishni hamda shu orqali mahsulot ishlab chiqarish samaradorligini, uning sifatini va bozordagi raqobatbardoshligini oshirishni ta'minlashi lozim.

Bundan tashqari, SMT axborot ta'minoti modelini muvaffaqiyatli amalga oshirish davomli monitoring va tahlil jarayonlari muhim ahamiyatga ega. Har bir jarayonni o'rganish, ta'sir etuvchi omillarni belgilash va natijalarni baholash sifat menejmenti tizimining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Ushbu jarayonda muntazam ravishda statistik ma'lumotlar to'plash va tahlil qilish orqali xatolarni aniqlash imkoniyati tug'iladi [5; 92-94 - b].

Qayta aloqa mexanizmi esa boshqaruv qarorlarining samaradorligini baholash imkonini beradi. Qarorlar ijrosi natijalari axborot tizimi orqali tahlil qilinadi va zarur hollarda tuzatish choralari ishlab chiqiladi. Bu esa sifat menejmenti tizimining uzluksiz takomillashuvini ta'minlaydi [6;10-11 - b]. Quyidagi 1-jadvalda SMT axborot ta'minoti orqali boshqaruv samaradorligini oshirishning asosiy yo'nalishlari, ularning mazmuni va kutilayotgan natijalari keltirilgan.

SMT axborot ta'minoti orqali boshqaruv samaradorligini oshirishning asosiy yo'nalishlari

№	Yo'nalish nomi	Mazmuni	Kutilayotgan natija
1	Axborot oqimlarini markazlashtirish	Turli bo'linmalardan keluvchi axborotlarni yagona ma'lumotlar bazasida jamlash	Ma'lumotlarning ishonchliligi va tezkorligi oshadi
2	Hujjatlar aylanishini avtomatlashtirish	Elektron hujjat aylanishi va avtomatik marshrutizatsiyani joriy etish	Vaqt sarfi va qog'oz hujjatlar hajmi kamayadi
3	Monitoring tizimini joriy etish	Sifat ko'rsatkichlarini real vaqt rejimida kuzatish	Og'ishlarni erta aniqlash imkoniyati yaratiladi
4	Qayta aloqa mexanizmi	Qarorlar ijrosini tahlil qilish va tuzatish choralarini ishlab chiqish	SMTning uzluksiz takomillashuvi ta'minlanadi
5	Qaror qabul qilishni axborot bilan ta'minlash	Tahliliy hisobotlar va ko'rsatkichlardan foydalanish	Boshqaruv qarorlarining aniqligi va samaradorligi oshadi

Muxokama.

SMT axborot ta'minoti modelining davomiy rivojlanishini ta'minlash maqsadida xodimlarni muntazam ravishda o'qitish va rivojlantirish zarur. Bu xodimlarning bilim va ko'nikmalarini oshiradi hamda yangi texnologiyalar va yondashuvlar bilan tanishtiradi.

Jarayonning tezkor muvofiqligini ta'minlash uchun axborot ta'minoti tizimida avtomatik xabarnoma va bildirishnoma tizimini joriy etish tavsiya etiladi. Bu xodimlarga vaqtida tegishli axborot yetkazish va o'zaro hamkorlikni kuchaytirish imkoniyatini beradi. Natijada, SMT axborot ta'minoti modeli nafaqat jarayonlarni samarali boshqarish, balki tashkilotning umumiy samaradorligini oshirish va raqobatbardoshligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Har bir jarayonni yaxshilashga qaratilgan fikrlar va yondashuvlarni ularning amalda qo'llanilishini ta'minlash orqali korxonalar o'rtasidagi farqni sezilarli darajada kamaytirish mumkin.

To'qimachilik korxonalarida sifat menejmenti tizimini samarali boshqarish axborot oqimlarining to'g'ri tashkil etilishi, ularning o'z vaqtida qayta ishlanishi va boshqaruv qarorlarini qabul qilish jarayoniga va integratsiyalashuviga bevosita bog'liqdir. Shu sababli SMT axborot ta'minoti tizimini rivojlantirish texnik vositalar bilan bir qatorda tashkiliy va metodik mexanizmlarni ham o'z ichiga olishi lozim.

Axborot ta'minoti orqali boshqaruv samaradorligini oshirish quyidagi asosiy yo'nalishlar orqali amalga oshiriladi: hujjatlar aylanishini avtomatlashtirish, axborot oqimlarini markazlashtirish, monitoring va qayta aloqa mexanizmlarini joriy etish hamda qaror qabul qilish jarayonlarida ishonchli ma'lumotlardan foydalanish. Ushbu mexanizmlarning joriy etilishi ishlab chiqarish jarayonlarida yuzaga keladigan og'ishlarni erta aniqlash, sifat ko'rsatkichlarini doimiy nazorat qilish va resurslardan oqilona foydalanish imkonini yaratadi [7; 10-12-b].

Monitoring mexanizmi SMT axborot ta'minoti tizimining ajralmas qismi bo'lib, u sifat ko'rsatkichlari, ishlab chiqarish jarayonlarining barqarorligi, nuqsonlar darajasi hamda mijozlar talablariga muvofiqlikni uzluksiz nazorat qilishni ta'minlaydi. Monitoring natijalari

asosida shakllantirilgan tahliliy axborotlar boshqaruv qarorlarini qabul qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

SMT axborot ta'minoti tizimining samarali faoliyati to'qimachilik korxonalarining bozordagi raqobatbardoshligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ishonchli axborotlar asosida mahsulot sifati barqarorligi ta'minlanadi, nuqsonli mahsulotlar ulushi kamayadi hamda ishlab chiqarish xarajatlari optimallashtiriladi. Shu bilan birga, mijozlar talablariga tezkor moslashish imkoniyati kengayadi.

Tadqiqot doirasida to'qimachilik korxonalarida SMT axborot ta'minotini takomillashtirish bo'yicha ishchi guruhni shakllantirish mexanizmi taklif etiladi. Ushbu mexanizm axborot oqimlarini tizimlashtirish, boshqaruv jarayonlarining shaffofligini oshirish va qaror qabul qilish jarayonlarini optimallashtirishga xizmat qiladi. Mexanizmni amaliyotga joriy etish to'qimachilik korxonasi faoliyatining samaradorligi va raqobatbardoshligini oshirish imkonini beradi.

Natijalar.

Tadqiqot natijalari to'qimachilik korxonalarida sifat menejmenti tizimini (SMT) axborot ta'minoti orqali takomillashtirish boshqaruv samaradorligini oshirishga xizmat qilishini ko'rsatdi. Olingan asosiy natijalar 2-jadvalda keltirilgan.

2-jadval

SMT axborot ta'minoti asosida boshqaruv samaradorligini oshirish natijalari

№	Tadqiqot yo'nalishi	Amalga oshirilgan chora-tadbir	Olingan natija
1	Axborot oqimlarini markazlashtirish	Yagona ma'lumotlar bazasini shakllantirish	Ma'lumotlar ishonchliligi va qaror qabul qilish tezligi oshdi
2	Hujjatlar aylanishini avtomatlashtirish	Elektron hujjat aylanishi tizimini joriy etish	Vaqt sarfi kamaydi, qog'oz hujjatlar hajmi qisqardi
3	Monitoring tizimini joriy etish	Sifat ko'rsatkichlarini real vaqt rejimida kuzatish	Nuqson va og'ishlar erta aniqlandi
4	Qayta aloqa mexanizmi	Qarorlar ijrosini tahlil qilish va tuzatish choralari ishlab chiqish	SMTning uzluksiz takomillashuvi ta'minlandi
5	CALS va axborot texnologiyalarini qo'llash	Ma'lumotlar integratsiyasi va hayotiy siklni raqamlashtirish	Mahsulot sifati barqarorligi va raqobatbardoshlik oshdi
6	Ishchi guruh mexanizmini joriy etish	Bo'linmalar o'rtasida muvofiqlashtirilgan hamkorlik	Boshqaruv shaffofligi va tashkiliy samaradorlik kuchaydi
7	Qog'ozsiz boshqaruv muhitiga o'tish	Raqamli axborot ta'minoti modelini joriy etish	Ishlab chiqarish xarajatlari kamaydi va umumiy samaradorlik oshdi

Mazkur tadqiqotda to'qimachilik korxonalarida sifat menejmenti tizimini (SMT) axborot ta'minoti orqali boshqarish samaradorligini oshirish masalalari kompleks ravishda o'rganildi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, zamonaviy sharoitda SMT samaradorligi bevosita axborot oqimlarining to'g'ri tashkil etilishi, ularning markazlashtirilgan holda yig'ilishi, qayta ishlanishi va boshqaruv qarorlarini qabul qilish jarayoniga integratsiyalashuviga bog'liqdir.

Maqolada SMT axborot ta'minotining "mavjud holat" va "takomillashtirilgan holat" modellarini shakllantirish yondashuvi asoslab berildi hamda ishchi guruhni shakllantirish mexanizmi taklif etildi. Mazkur mexanizm turli bo'linmalardan jalb etilgan mutaxassislarining o'zaro hamkorligini kuchaytirish, boshqaruv jarayonlarining shaffofligini oshirish va qarorlar qabul qilish tezligini yaxshilash imkonini beradi. Shu bilan birga, hujjatlar aylanishini avtomatlashtirish, monitoring va qayta aloqa mexanizmlarini joriy etish orqali sifat ko'rsatkichlarini doimiy nazorat qilish imkoniyati yaratiladi.

Shuningdek, SMT axborot ta'minoti tizimining amaliyotga joriy etilishi korxonada to'liq qog'ozsiz hujjatlar aylanishiga o'tish, sifatni boshqarishning avtomatlashtirilgan tizimini shakllantirish hamda mahsulot sifati barqarorligini ta'minlash uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi. Bu esa, o'z navbatida, to'qimachilik korxonalarining ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, bozor talablariga tezkor moslashish va raqobatbardoshlikni kuchaytirishga xizmat qiladi.

Xulosa.

Mazkur tadqiqot doirasida to'qimachilik korxonalarida sifat menejmenti tizimini (SMT) axborot ta'minoti orqali boshqarish samaradorligini oshirish masalalar kompleks ravishda o'rganildi. Olib borilgan ilmiy tahlillar va amaliy yondashuvlar shuni ko'rsatdiki, zamonaviy ishlab chiqarish sharoitida SMT samaradorligi bevosita axborot oqimlarining to'g'ri tashkil etilishi, ularning markazlashtirilgan holda yig'ilishi, qayta ishlanishi hamda boshqaruv qarorlarini qabul qilish jarayonlariga integratsiyalashuv darajasiga bog'liqdir.

Tadqiqot natijasida SMT axborot ta'minotining "mavjud holat" va "takomillashtirilgan holat" modellarini shakllantirishning ilmiy-uslubiy yondashuvi asoslab berildi hamda turli bo'linmalar mutaxassislari jalb etishga asoslangan ishchi guruhni shakllantirish mexanizmi taklif qilindi. Ushbu mexanizm boshqaruv jarayonlarining shaffofligini oshirish, qarorlar qabul qilish tezligini yaxshilash hamda sifat ko'rsatkichlarini doimiy nazorat qilish imkonini berishi bilan ahamiyatlidir.

Shuningdek, hujjatlar aylanishini avtomatlashtirish, monitoring va qayta aloqa mexanizmlarini joriy etish, CALS-texnologiyalari hamda zamonaviy axborot tizimlaridan foydalanish SMTning barqaror ishlashini ta'minlab, mahsulot sifati darajasini oshirish, nuqsonli mahsulot ulushini kamaytirish va ishlab chiqarish xarajatlarini optimallashtirishga xizmat qilishi aniqlandi.

SMT axborot ta'minoti modelini amaliyotga joriy etish korxonalarda qog'ozsiz hujjatlar aylanishiga bosqichma-bosqich o'tish, sifatni boshqarishning avtomatlashtirilgan tizimini shakllantirish hamda ishlab chiqarish samaradorligi va bozor raqobatbardoshligini oshirish uchun zarur tashkiliy-texnik sharoitlarni yaratadi.

Xulosa qilib aytganda, ishlab chiqilgan SMT axborot ta'minoti modeli va taklif etilgan tashkiliy-mexanizmlar to'qimachilik korxonalarida sifat menejmenti tizimini takomillashtirishning samarali vositasi bo'lib, ularni amaliyotga joriy etish korxona faoliyatining barqarorligi, samaradorligi va raqobatbardoshligini sezilarli darajada oshirish imkonini beradi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Vasiyev X.U. To'qimachilik korxonalarida nuqsonli mahsulotlarni nazorat qilish orqali mahsulot sifatini boshqarish // Andijon: Andijon mashinasozlik instituti Mashinasozlik ilmiy texnika jurnali. – 2024. № 1-son.

2. Vasiyev X.U. To'qimachilik korxonalarida sifat darajasini shakllantirishda cal's texnologiyalari asosidagi axborot ta'minotining o'rni // Andijon: Andijon mashinasozlik instituti Mashinasozlik ilmiy texnika jurnali – 2025 Maxsus son.
3. Кондрин А.В., Кукарцев В.В. Стратегия внедрения CALS-технологий // Сибирский журнал науки и технологий. – 2017. – №. 3(36).
4. Vasiev Kh.U. IMPROVEMENT OF THE PRODUCT QUALITY MANAGEMENT SYSTEM AT TEXTILE ENTERPRISES. American Journal of Applied Science and Technology, 4(10), <https://doi.org/10.37547/ajast/Volume04Issue10-15>
5. Vasiyev X.U. To'qimachilik korxonalarida mahsulot sifatini boshqarish tizimini standartlashtirish talablari asosida takomillashtirish // Andijon: Andijon davlat texnika instituti // Monografiya. 2025. ISBN : 978-9910-08-696-0
6. Губарев А.В. Совершенствование системы менеджмента качества организации на основе улучшения ее информационного обеспечения: автореферат // – Брянск: БГТУ. 2010.
7. Доросинский Л.Г., Зверева О.М. Информационные технологии поддержки жизненного цикла изделия. – Ульяновск: Зебра, 2016.

TECHSCIENCE.UZ

**TEXNIKA FANLARINING DOLZARB
MASALALARI**

№ 2 (4)-2026

TOPICAL ISSUES OF TECHNICAL SCIENCES

**TECHSCIENCE.UZ- TEXNIKA
FANLARINING DOLZARB MASALALARI**
elektron jurnali 15.09.2023-yilda 130346-
sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatidan
o'tkazilgan.

Muassislar: "SCIENCEPROBLEMS TEAM"
mas'uliyati cheklangan jamiyati;
Jizzax politexnika insituti.

TAHRIRIYAT MANZILI:

Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik
Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy.

Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com